

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA UNING AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA'SIRI

PhD, dots. **Xudoyberdiyev Jamshid**

Sambhram universiteti

ORCID: 0009-0005-2754-8556

khudoyberdiyevjamshid@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonining mohiyati hamda uning aholi turmush darajasiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. So'nggi yillarda bandlik va ishsizlik darajasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston aholisining ijtimoiy holati va turmush darajasidagi o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Raqamli transformatsiyasining aholi turmush sifatiga ijobiy ta'siri aniqlandi, bu raqamli infratuzilmadan foydalanuvchilar ulushining oshishi, aholining raqamli savodxonligining o'sishi, raqamli xizmatlarning yangi turlarining paydo bo'lishi, iqtisodiyotning keng ko'lamli transformatsiyasi natijasida mamlakatning raqamli makonidagi o'zgarishlar fonida yangi biznes jarayonlari va bandlik shakllarining paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning ijobiy jihatlarini bilan bir qatorda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyotni raqamlashtirish, aholi turmush sifati, yashash minimumi, aholi daromadlari, kambag'allik darajasi.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

PhD, доц. **Худойбердиев Жамшид**

Университет Самбрам

Аннотация. В данной статье анализируется сущность процесса цифровой трансформации и его влияние на уровень жизни населения. Рассмотрены изменения в социальном положении и уровне жизни населения Узбекистана за последние годы по таким макроэкономическим показателям, как уровень занятости и безработицы. Выявлено положительное влияние цифровой трансформации на качество жизни населения, что выражается в увеличении доли пользователей цифровой инфраструктуры, росте цифровой грамотности населения, появлении новых видов цифровых услуг, появлении новых бизнес-процессов и форм занятости на фоне изменений в цифровом пространстве страны в результате масштабной трансформации экономики. Кроме того, наряду с положительными аспектами цифровой трансформации будут рассмотрены существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: цифровизация экономики, качество жизни населения, прожиточный минимум, доходы населения, уровень бедности.

DIGITAL TRANSFORMATION AND ITS IMPACT ON THE LIVING STANDARDS OF THE POPULATION

PhD, assoc. prof. **Khudoyberdiyev Jamshid**
Sambhram University

Abstract. *This article analyzes the essence of the digital transformation process and its impact on the standard of living of the population. Changes in the social status and standard of living of the population of Uzbekistan in recent years have been considered in terms of macroeconomic indicators such as the level of employment and unemployment. The positive impact of digital transformation on the quality of life of the population has been identified, which is expressed in the growth of the share of users of digital infrastructure, the growth of digital literacy of the population, the emergence of new types of digital services, the emergence of new business processes and forms of employment against the backdrop of changes in the country's digital space as a result of large-scale transformation of the economy. Along with the positive aspects of digital transformation, existing problems and ways to eliminate them will also be considered.*

Keywords: *digitalization of the economy, quality of life of the population, living wage, income of the population, poverty level.*

Kirish.

Hozirga davda har bir mamlakatning iqtisodiyotiga va aholining kundalik hayotiga raqamli texnologiyalarni joriy etishdan iborat bo'lgan raqamli transformatsiya, asosiy texnologik jarayonlarni boshqarish tizimini optimallashtirish bilan birga, raqamli iqtisodiyot me'yorlarini shakllantirish, kompaniyalarning biznes modellarini, aholining turmush tarzi va xulq – atvorini o'zgartirish dolzarb hisoblanmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida yagona global kapital, yangi mehnat bozori paydo bo'lmoqda, raqamli kapital shakllanmoqda, korporativ madaniyat, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining shakl va usullarida o'zgarishlar yuz bermoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli transformatsiya kun tartibini ilgari surish maqsadida, 2020-yilda ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga asos solgan ko'plab strategiya va farmonlar amalga oshirildi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ikki yil ichida turli mintaqalarda va ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan 280 dan ortiq raqamli transformatsiya loyihalarini o'z ichiga oladi (BMTTD va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar vazirligi, 2022). Albatta, O'zbekistonning raqamli transformatsiya yo'lidagi eng e'tiborga molik yutuqlaridan biri bu elektron davlat xizmatlarining o'sishidir. Hukumat fuqarolarga o'z uylarida turib, keng ko'lamlı davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali kabi ko'plab onlayn platformalarni ishga tushirdi. Bu davlat boshqaruvi samaradorligi va shaffofligini sezilarli darajada oshirdi, byurokratiya va korrupsiyani kamaytiradi.

Raqamli iqtisodiyot sohasidagi taraqqiyot ta'lim olish sharoitlarini o'zgartiradigan va mehnat resurlarining yangi tuzilmasini shakllantiradigan zamonaviy texnologiyalarning butun jamiyatga va alohida insonga ijtimoiy ta'siri bilan birga kelmoqda. Internetdan erkin foydalanish asta – sekin yagona axborot muhitini yaratadi, foydalanuvchilarga axborot resurslaridan foydalanish va ta'lim darajasini oshirish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Aholining raqamli savodxonligi va jamoat infratuzilmasini rivojlantirmasdan turib, raqamlashtirish muammolarini hal qilish mumkin emas. Umuman olganda, iqtisodiyot va hayotni raqamlashtirish fuqarolarning hayot sifatidan qoniqishini oshirishga yordam beradi va uning hayotning turli sohalariga kirib borishi mamlakatning iqtisodiy o'sishini rag'batlantiradi.

Shunday qilib, raqamlashtirishning natijasi va ijobiy ta'siri aholi turmush darajasi va sifatini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, biznes jarayonlarining yangi shakllarini shakllantirish, sun'iy intellektdan foydalanish va iqtisodiy jarayonlarni kuzatish imkoniyatini beradi.

Aholining turmush darajasiga raqamli transformatsiyaning ta'siri bo'yicha iqtisodchi olimlarning fikrlari turli yillarda taqdim etilgan tadqiqot va tahlillarda aks etgan. Quyida ba'zi taniqli iqtisodchi olimlarning ushbu masala bo'yicha fikrlari keltirilgan:

Glazyev (2019)ning "Raqamli iqtisodiyot: afsonalar va haqiqat" nomli monografiyasida iqtisodiyot va jamiyatning raqamli rivojlanishining mohiyati, qonuniyatlari va tendentsiyalari ko'rib chiqiladi. Muallif raqamli rivojlanishni aniqlashning turli yondashuvlarini tahlil qiladi, uning asosiy tavsiflari va bosqichlarini belgilaydi, raqamlashtirishning iqtisodiyot va jamiyatga ta'sirini o'rganadi.

Glazyev (2019) raqamli rivojlanish iqtisodiyot va jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oluvchi keng qamrovli jarayon degan xulosaga keladi. Bu iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlari va sohalarining o'zgarishiga, yangi bozorlar va texnologiyalarning shakllanishiga, odamlarning turmush tarzi va xulq-atvorining o'zgarishiga olib keladi.

Gaponenko (2020)ning "Iqtisodiyotni raqamlashtirish: muammolar va istiqbollari" nomli monografiyasida iqtisodiyotni raqamlashtirish muammolari va istiqbollari ko'rib chiqilgan. Muallif raqamlashtirishning iqtisodiyot tuzilmasi, bandlik, iste'mol, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalariga ta'sirini tahlil qiladi. Gaponenko (2020) raqamlashtirish ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keladi degan xulosaga keladi. Bu, bir tomondan, ishlab chiqarish samaradorligini o'sishi, mehnat unumdorligini oshirish, insonlarning turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi. Boshqa tomondan esa bu tengsizlik, ishsizlik va kiberjinoyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Stepanov va Yakovleva (2021)larning monografiyasida raqamli iqtisodiy rivojlanish muammolari, tendentsiyalari va istiqbollari ko'rib chiqiladi. Mualliflar raqamlashtirishning iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri, raqamli rivojlanish sohasidagi davlat siyosatini tahlil qiladilar.

Ular raqamli rivojlanish zamonaviy dunyodagi eng muhim tendentsiyalardan biri degan xulosaga kelishadi. U iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalariga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Raqamli rivojlanishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha fuqarolarning raqamli texnologiyalar va xizmatlardan foydalanishini ta'minlash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, raqamli makonda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan samarali davlat siyosati zarur.

Gary Pillar (2021)ning "Raqamli transformatsiya va uning sanoatga ta'siri" nomli maqolasida raqamli transformatsiya turli sohalariga, jumladan, ishlab chiqarish, moliya, sog'liqni saqlash va ta'limga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi. U raqamli innovatsiyalar natijasida biznes modellari va jarayonlaridagi o'zgarishlarni aniqlaydi. Pillar raqamli transformatsiyani "raqamli texnologiyalar orqali biznes va jamiyatni o'zgartirish jarayoni" deb ta'riflaydi. U raqamli transformatsiyaning quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratgan:

- yangi mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellarni yaratish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- jarayonlarni avtomatlashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- kompaniyalar, iste'molchilar va hamkorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'zgartirish.

Shunday qilib, hududlar iqtisodiyoti va jamiyatning raqamli rivojlanishi bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvi va iqtisodiyotning raqamli transformatsiya davlatning roli va ahamiyatini kuchaytirish hamda uning iqtisodiyotda ham, ijtimoiy sohada ham sodir bo'layotgan jarayonlarni tartibga solishda ko'proq ishtirok etishini taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni va uning aholi daromadlariga ta'siri bo'yicha tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil natijalar muhokamasi.

Ilg'or raqamli texnologiyalar tufayli aholining bilim va ko'nikmalari, an'analari va turmush tarzi o'zgarmocda. Xususan, yaqinda paydo bo'lgan jismoniy shaxslar uchun raqamli xizmatlar odamlarning hayotini sezilarli darajada yaxshilaydi, ularga davlat idoralari va biznes bilan o'zaro hamkorlik qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda davlat organlari va fuqarolarning o'zaro samarali hamkorligini ta'minlash, ko'rsatilayotgan xizmatlarning qulaylik darajasi va sifatini oshirish imkonini beruvchi "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi texnologiyalar va raqamli vositalar hukumat bilan o'zaro hamkorlik jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi, davlat sektorida shaffoflik va hisobdorlikni yaxshilamoqda va milliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shib kelmoqda.

Hozirga kelib, "Elektron hukumat"ning Yagona identifikatsiya tizimi (id.egov.uz) takomillashtirilib, foydalanuvchilar soni 7 milliondan ziyodni tashkil etib, mazkur tizim orqali fuqarolar davlat idoralariining 245 dan ziyod axborot resursidan foydalanish imkoniyati yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 400 dan ortiq davlat xizmatidan inson omilisiz elektron tarzda foydalanish imkoniyati yaratildi va elektron xizmatlarga bo'lgan talab 10 barobarga oshdi (937 mingdan 9,5 milliontaga yetdi). Yagona portal orqali 2020 yilda 9,8 millionta xizmat ko'rsatilgan. Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 3,6 milliondan ortgan. Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan portal xizmatlaridan yil boshidan jami 7,9 million marotaba foydalanilgan (o'tgan yil shu davriga nisbatan o'sish 145 foiz) ¹.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ulardan foydalanish qobiliyati nafaqat alohida shaxsning, balki butun jamiyatning farovonligini oshirishga olib kelishi lozim. Aynan shunday yondashuv innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishga investitsiyalarning o'sishi uchun asoslardan biridir. Raqamli texnologiyalarning insonga va uning turmush darajasiga ta'sirini baholashning eng mashhur usullaridan biri Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning How's Life in the Digital Age? (OECD, 2019). Unga ko'ra, raqamlashtirish parametrining IHTTning farovon hayot indeksiga kiruvchi 11 ta farovonlik omiliga ta'siri baholanadi (sog'liq; ta'lim va ko'nikmalar; daromad va farovonlik; ish va daromad; ish va hayot o'rtasidagi muvozanat; ijtimoiy aloqalar; boshqaruv va fuqarolik faolligi; shaxsiy xavfsizlik; atrof-muhit sifati; uy-joy; subyektiv farovonlik).

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar instituti ekspertlari ushbu metodika asosida IHTT mamlakatlarida yashovchi odamlarning turmush sharoitlarini taqqoslash imkonini berishi kerak bo'lgan raqamli farovonlik sharoitlari indeksining modelini ishlab chiqdilar.

Ushbu modelida inson farovonligi uchun muhim bo'lgan beshta omil ajratib ko'rsatilgan:

- infratuzilma va texnologiyalardan foydalanish ("AKTdan foydalanish" omili);
- sifatli ta'lim olish va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish va farovonlikni oshirish;
- sifatli xizmatlardan foydalanish;
- AKTdan foydalangan holda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Ushbu omillarning har biri yangi muhitda insonning yangi imkoniyatlarini baholashga imkon beradigan va uning turmush darajasiga ta'sir ko'rsatadigan bir nechta ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Biroq, aholi daromadlarining o'sishi, ta'lim olish, munosib ish va zarur xizmatlarni olish imkoniyatlari mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyatga bog'liq bo'lib, u bir qator ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi, ulardan ba'zilari 1-jadvalda keltirilgan.

¹ <https://gov.uz/oz/dustlik/news/view/95917>

Ushbu omillarning har biri yangi muhitda insonning yangi imkoniyatlarini baholashga imkon beradigan va uning turmush darajasiga ta'sir ko'rsatadigan bir nechta ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. "Turmush darajasi" toifasiga O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi quyidagi mavzular bo'yicha statistik ma'lumotlarni kiritadi:

- Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad;
- aholining real ixtiyoridagi pul daromadlari (barcha majburiy to'lovlar (solliqlar, badallar) chegirib tashlanganidan so'ng qoladigan daromadlar);
- kambag'allik darajasi.

Biroq, aholi daromadlarining o'sishi, ta'lim olish, munosib ish va zarur xizmatlarni olish imkoniyatlari mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyatga bog'liq bo'lib, u bir qator ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi, ulardan ba'zilari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

2021-2025-yillarda O'zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Yalpi ichki mahsulot (YAIM), mlrd. so'm	861170.8	1041877.9	1261806	1535431.7	1849650
Aholi jon boshiga YaIM, ming so'm	24664,7	29226,7	34653,2	41306,7	48816,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar, o'sish % o'tgan yilga nisbatan	102.9	100.2	123.4	131.3	110,5
Iste'mol narxlari indeksi, yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan, % da	111,6	109.83	112,19	108,58	109,89
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming so'm	15421,7	18373,9	20764,5	24111,9	29900
Aholi real umumiy daromadlari o'sish sur'ati % da	112,6	108,7	106,1	111,7	109,2
Aholi jon boshiga minimal iste'mol xarajatlari qiymati bir oy uchun, ming so'm	440	498	568	648	669
Kambag'allik darajasi	17.0	14,4	11.0	8,9	5,8


Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 110,5 foizga o'sdi. Shunday qilib, 2025-yil yakunlariga ko'ra, aholi real umumiy daromadlarining o'sishi 9,2 foizni tashkil etdi (2024-yilda 11,7 foizga teng edi). Aholi umumiy daromadlarining barcha tarkibiy qismlari ko'ra, 2025-yil yakuni bo'yicha ijobiy dinamika kuzatildi. 2025-yilning yanvar-dekabr holatiga aholining umumiy daromadlari 1134,3 trln so'mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 109,2 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 16,6% ga oshdi (inflyatsiyani hisobga olgan holda 9,89 %) — yiliga 24,1 mln so'mdan 29,9 so'mgacha (oyiga 2,5 mln so'm). O'tgan yilning shu davrida o'sish 16,1% va 5,9% ni tashkil etgandi.

2025-yil yanvariga holatiga, iste'mol narxlari indeksi yillik (2024 yil yanvar oyiga nisbatan) 9,9 foizga yetdi. Bu, 2024- yil yanvaridagi ko'rsatkichdan 1,3 foiz bandga baland, 2023- yilning yanvaridagi ko'rsatkichdan esa 2,3 foiz bandga past bo'ldi.


Aholi jon boshiga o'rtacha oylik daromadlar 2,6 mln so'mni tashkil etib, uning tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar – 72,6% (2024 yilda – 67,7%), keksalik pensiyasi – 11,8% (12,2%), qishloq xo'jaligi – 10,1% (12,7%), ijtimoiy yordam – 1,6% (2,2%) va boshqa daromadlar – 3,9% ga (5,2%) teng bo'ldi.




1- rasm. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlari hajmi va o'sish sur'ati

So'nggi ikki yil ichida ish haqining yuqori o'sishining asosiy sabablari quyidagilardir:

- Kichik va o'rta biznesga tegishli ko'plab yirik va kichik korxonalar mutaxassislar yetishmovchiligiga duch keldi;
- ish haqining yuqori darajasini va uning yuqori o'sish sur'atini saqlab turish uchun moliyaviy imkoniyatlarning yetarliligi.



2-rasm. Kambag'allik darajasi



3-rasm. Kambag'allar miqdori (million)

O'zbekistonda 2025-yil yakunlari bo'yicha kambag'allik darajasi 3,1 foiz punktga qisqarib, 5,8 foizni tashkil etdi. 2023-yilda respublikada kambag'allik darajasi 14 foizdan 11 foizga, 2024-yilda 8,9 foizga, 2025-yilda esa 5,8 foizgacha qisqardi. Natijada joriy yilda ehtiyojmand 302 ming oila kambag'allikdan chiqarildi. Kambag'allik darajasi shaharlarda ko'proq qisqarib, 5,2%ni (2024 yilda 8,6%) tashkil etgan bo'lsa, qishloq hududlarida 6,4%ni (2024 yilda 9,2%) tashkil etdi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda respublikada kambag'al aholi soni 2,2 million nafarni tashkil qiladi.

Mamlakatda aholi daromadlari tarkibi tahlili ijobiy o'zgarishlarni namoyon etmoqda. Daromadlarning asosiy manbalari mehnatdan olingan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar, pensiyalar va qishloq xo'jaligidan olingan daromadlarga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatda "Xitoy tajribasi" asosida Yangi yondashuvlarning amaliyotga joriy etilishi yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirishda muhim omil bo'ldi. Jumladan, joriy yilda:

- eksportchi korxonalar ishtirokida "Kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida 484 ta kooperativ tashkil etilib, ularga 15,7 ming nafar kambag'al oila a'zolari jalb qilindi;

- o'rmon fondi yerlaridan 8,7 mingta kambag'al oilaga ko'chatxona tashkil etish va dorivor o'simliklar yetishtirish uchun 21 ming gektar yer maydoni ijara asosida ajratib berildi;

- 2,3 mingta kambag'al oilalarga o'zi yetishtirgan mahsulotini sotish uchun dehqon bozorlari va supermarketlardan 7,5 ming kv.m. maxsus savdo joylari ajratildi;

- 12 ta yangi "turizm mahallalari"ni tashkil etish hamda 40 ta mahallada turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali 1,3 ming nafar kambag'al oila a'zolari bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, Sayxunobod tajribasi bo'yicha mahallalarda qiymati 18 trln so'mlik 394 mingdan ortiq mikroloyihalar amalga oshirilib, bu orqali respublikada jami 809 ming kishining bandligi ta'minlandi.

2025-yilning 11 oyida tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun 127,1 trillion so'm kredit ajratildi. Bu mablag'ning 27,7 trln so'mi tadbirkorlik dasturlariga, jumladan, 4 trln so'm "Oilaviy tadbirkorlik", 6,6 trln so'm "Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash", 4,4 trln so'm "Biznesga birinchi qadam" va 13 trln so'm "Mahalla loyihasi"ga yo'naltirilgan.

Xulosa va takliflar.

Aholini turmush darajasini o'rganish oila hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bundan ko'rinadiki, aholini turmush darajasini o'rganish, statistik baholash murakkab bo'lib, maxsus statistik usullardan: uy xo'jaligi byudjetini tekshirish, aholini pul daromadlari va xarajatlari balansidan foydalanib olib boriladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash aniq va maqsadli yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish-yangi ijtimoiy himoyalash tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishni raqamlashtirishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining faoliyati va mehnat qonunchiligiga ham o'zgartirish lozim. Bu:

➤ mehnat bozorida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni to'liqroq aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Aynan davlat ijtimoiy mehnat munosabatlarini tartibga solish bo'yicha ko'plab funksiyalarni o'z zimmasiga olish kerak;

➤ aholining turli guruhleri raqamlashtirish jarayonlariga turli yo'llar bilan jalb qilingan va ularning ba'zilar kundalik hayotga qo'llash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari umuman mavjud emas. (asosan zarur raqamli infratuzilma yoki texnik vositalardan foydalanish imkoniyati yo'qligi yoki foydalanish qobiliyati mavjud emas).

➤ odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faolashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish (har bir kishining iqtisodiy erkinligini shakllantirish);

➤ aholining daromadlariga va turmush darajasida asossiz farqlarga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantirish;

➤ qashshoqlikka qarshi kurash, eng muxtoj aholi qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishni kuchaytirish, demakdir.

➤ O'zbekistonda raqamli rivojlanish holati bo'yicha dastlabki ma'lumotlarning yo'qligi raqamli transformatsiya bo'yicha sa'y-harakatlarni samarali monitoring qilish va baholashni cheklab qo'ydi. Hukumat raqamli loyihalarni monitoring qilish va milliy maqsadlarga muvofiqligini ta'minlash uchun keng qamrovli ma'lumotlar yig'ish tizimini ishlab chiqishga sarmoya kiritishi kerak.

➤ Hukumat innovatsiyalarni rivojlantirish, barqaror raqamli yechimlarni ilgari surish va raqamli iqtisodiyotga o'tishni osonlashtirish uchun xususiy texnologiya firmalari bilan hamkorlikni rag'batlantirishi kerak.

➤ Davlat xizmatchilari uchun o'quv dasturlari mavjud bo'lsa-da, resurs cheklovlari va o'zgarishlarga qarshilik raqamli transformatsiyaga to'squinlik qilmoqda. Davlat xizmatchilarining raqamli savodxonligini, xususan, ma'lumotlarni boshqarish kabi

ixtisoslashgan sohalarida uzluksiz, maqsadli o'qitish dasturlari orqali mustahkamlash bu to'siqlarni yengish uchun kalit bo'ladi.

➤ O'zbekistonda raqamli rivojlanish holati bo'yicha dastlabki ma'lumotlarning yo'qligi raqamli transformatsiya bo'yicha sa'y-harakatlarni samarali monitoring qilish va baholashni cheklab qo'ydi. Hukumat raqamli loyihalarni monitoring qilish va milliy maqsadlarga muvofiqligini ta'minlash uchun keng qamrovli ma'lumotlar yig'ish tizimini ishlab chiqishga sarmoya kiritishi kerak.

O'zbekistonda o'ziga xos mahalla instituti orqali amalga oshirilayotgan maqsadli ijtimoiy ta'minot tizimi, garchi ayrim kamchiliklarga ega bo'lsada, boshqa har qanday tizim bilan solishtirganda yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda. Ushbu tizimning uzluksiz monitoringini o'tkazish va uning samaradorligini oshirish uchun mos keluvchi zarur o'zgartirishlarni kiritish zarur. O'zbekiston uchun makrodarajada eng muhim strategik vazifa iqtisodiy o'sish sifatini oshirishning texnologik modernizastiyalash, xalqaro raqobatbardoshlikning ortishi, iqtisodiyotning diversifikastiyalanishi va mamlakatni eksport tovarlari va xizmatlari keng doirasi texnologik rivojlangan ishlab chiqaruvchisiga aylantirish hisoblanadi. Bu samarali bandlikni oshirish va shu tariqa aholi farovonligini yaxshilash uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

Adabiyotlar / Lomepamypa / Reference:

BMTTD va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar vazirligi (2022): *Перспективные направления применения технологий искусственного интеллекта в Узбекистане* (O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llanishning istiqbolli yo'nalishlari.)

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston - 2030» Strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/098

Gary Pillar (2021) *Digital Transformation and Its Impact on Industries*.

OECD (2019), *How's Life in the Digital Age?: Opportunities and Risks of the Digital Transformation for People's Well-being*, OECD Publishing, Paris.URL: <https://doi.org/10.1787/9789264311800-en>.

Гапоненко А.Л. (2020) *Цифровизация экономики: проблемы и перспективы*. М.: ИНФРА-М.

Глазьев С.Ю. (2019) *Цифровая экономика: мифы и реальность*. М.: Фонд «Либеральная миссия».

Домакур, О., & Маъмуров, Б. (2023). Влияние процесса цифровой трансформации на развитие постиндустриального общества. *Nashrlar*, 1(2), 497–501. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/419>

Князев В.А. (2020) *Цифровая экономика: теоретические аспекты и практика реализации в России*. М.: НИУ ВШЭ.

Маъмуров Б.Х. (2016) *Государственная поддержка инновационной активности системы предпринимательства // Технологии информационного общества*. – С. 318-319.

Оверби Х., Одеста Я.А. (2022) *Цифровая экономика. Как информационно-коммуникационные технологии влияют на рынки, бизнес и инновации*. М.: Дело; 288 с.

Синявская О. В., Бирюкова С. С., Горват Е. С. и др. (2022) *Платформенная занятость в России: масштабы, мотивы и барьеры участия*. М.: НИУ ВШЭ; 82 с.

Фадеева И.П. (2023) *Социальные последствия развития цифровой экономики в современной России*. Молодой ученый. 51(498):106–108.